

**FE'L MAYLLARINING MA'NO HAMDA VAZIFASI**

Nazarova Shahrizoda

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Fizologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- kurs talabasi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l mayllarining semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Fe'l mayllari nutqda harakatning bajarilishiga bo'lgan munosabatni ifodalovchi muhim grammatik kategoriya sifatida o'rganiladi. Tadqiqot davomida xabar mayli, shart mayli, buyruq-istak mayli, maqsad mayllarining ma'no nozikliklari hamda ularning sintaktik vazifalari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, mayl kategoriyasining nutq aktidagi roli va kommunikativ vazifalari ilmiy asosda izohlanadi.*

***Kalit so'zlar:** xabar mayli, shart mayli, buyruq-istak mayli, maqsad mayli, semantika, sintaksis, kommunikativ funksiya.*

Tilshunoslikda fe'l kategoriyalari orasida mayl kategoriyasi alohida o'rin tutadi. Fe'l mayllari harakatning real yoki noreal ekanligi, unga bo'lgan subyektiv munosabat, buyruq, istak yoki shart kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek tilida fe'l mayllari nutqning mazmuniy va kommunikativ jihatdan to'g'ri tashkil etilishida muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — o'zbek tilidagi fe'l mayllarining ma'no xususiyatlari hamda ularning nutqdagi vazifalarini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

Fe'l mayllari — fe'ldan so'zlovchi tomonidan ifodalangan voqelikka munosabatni ifodalash uchun hosil qilingan shakllardir.

Mayl kategoriyasi “kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish” umumiy grammatik ma'nosiga ega. Mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosisida mayl kategorial ma'nosiga har doim zamon kategoriyasi ma'nosi yondosh. Mayl kategoriyasi ifodalayotgan munosabat rang-barang bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning quyidagi turi ajratiladi:

Mayl kategoriyasi ifodalayotgan munosabat rang-barang bo'lishi mumkin, shu sababli uning quyidagi turlari ajratiladi:



Mayl kategoriyasi. Harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi. Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi harakatning voqeylikka munosabatinigina emas, balki bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, kel, o'qi, ishla yoki kelsa, o'qisa, ishlasa kabi formalarda hali bajarilmagan harakat, uning bajarilishi haqida buyruq, shart ma'nolari ifodalansa, keldi, o'qigan, ishlayotir, kelaman, o'qigan eding, ishlayotgan edi kabi shakllarda real ravishda bajarilgan yoki bajarilayotgan va bajariladigan harakat haqida xabar beriladi. Demak, mayl kategoriyasida buyruq, istak, maslahat, shart, ijro etilish haqida xabar kabi turlicha ma'nolar ifodalanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi anglatgan ma'nolar modal ma'nolar hisoblanadi.

O'zbek tilida fe'lning mayl shakllari quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lib, bular ma'no va morfologik ifodalanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi:

- 1) xabar (ijro) mayli;
- 2) shart mayli;
- 3) buyruq-istak mayli;
2. ijro mayli.

1.Xabar mayli. Fe'l asosga zamon va shaxs-son affikslerini qo'shish orqali hosil qilinadi. Xabar maylidagi fe'lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishdir.

Xabar mayli harakat-holat yoki hodisani uning bajarilish vaqti bilan ifodalaydi. Unda bajarilish haqida xabar mavjud. Shuning uchun bu mayldagi fe'l, albatta, biror zamon shaklida bo'ladi: keldi, kelyapti, keladi. Xabar mayli biror ko'rsatkichga ega emas. U fe'lning zamon ko'rsatkichi orqali yuzaga chiqadi. Xabar mayli va zamon ma'nosi yig'iq ifodalanishga ega. Xabar maylidagi fe'lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishdir. U fe'lga uch zamon va shaxs-son affikslerini qo'shib tushlash orqali shakllanadi. Masalan: o'qidim, o'qiding. Xabar (ijro) mayli fe'l anglatgan harakat va holatni ma'lum zamonda bajarilishi, ijro etilishi haqida xabar beradi. Bu mayl shakli ish-harakat uch zamonning birida ijro etilganligini, uning mavjudligini yoki harakat shu zamonlarning birida bajarilmaganligini, imkor etilganligini anglatadi. Albatta, harakatning bajarilishini inkor etish xabar maylining ma'nosini o'zgartirmaydi.



Chunki bu shaklida ham real hodisa – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda harakatning bajarilmaganligi ifodalanadi: Men yoshlik qilib, bekordan-bekorga erkimni qo‘ldan berib qo‘yganman. U Onaxonning yoniga hech kimni yaqin yo‘latmadi.

Xabar termini bu maylning xususiyatiga, ma‘nosi va funksiyasiga ko‘proq mos keladi. Chunki bu mayl shaklidagi fe‘l ish-harakatning ma‘lum zamonda biror shaxs tomonidan ijro etilganligi yoki ijro etilmaganligi haqida xabar beradi.

Xabar maylining ma‘nosi zamon (shuningdek, shaxs-son) affiksi bilan kelgan fe‘l shaklidan anglashiladi. Xabar maylining o‘ziga xos xususiyati zamon kategoriyasiga ega ekanligida ko‘rinadi. Grammatik zamon kategoriyasining tasviri ayni zamonda xabar mayli shakllarining ham tasviridir. Xabar maylida modal ma‘nolar ham shu zamon shakllari va ayrim yuklama hamda modal so‘zlar orqali ifodalanadi. Xabar (ijro) maylining maxsus ko‘rsatkichi yo‘q. U fe‘lning zamon va shaxs-son affikslari orqali ifodalanadi. Ijro maylidagi fe‘lning asosiy *sintaktik vazifasi* gapda kesim bo‘lib kelishdir.

2.Shart mayli. Shart mayli biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni, shuningdek, ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi to‘g‘risida istak, maslahat, faraz kabi ma‘nolarni anglatadi. Shart mayli -sa qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Shart mayli - biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma‘nolari anglatadigan fe‘l mayli bo‘lib, -sa qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi: borsa, kelsam, yursak. Bu mayldagi fe‘llar sofshart ma‘nosini (Kelsa, boramiz), orzu-istak (Qani endi, o‘qishga kirsam), iltimos, maslahat (O‘sha kishini chaqirib bersangiz), faraz (Yomg‘ir yog‘sa kerak), payt (Tashqariga chiqsam, ukam turibdi), buyruq-istak mayliga xos (Gapirsangiz-chi!) ma‘nolarini ifodalaydi. Bu fe‘llar ekan fe‘li bilan qo‘llansa, shart ma‘nosiga istak ham qo‘shiladi. O‘qisa ekan. *Fe‘lning shart mayli* boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo‘ladigan, istalgan, faraz, mo‘ljallangan harakatni bildiradi. SHart mayli shakli fe‘l negiziga -sa mayl yasovchisini qo‘shish va tushlash bilan hosil qilinadi: olsam, olsang, olsa, olsak, olsangiz.

Shart maylidagi fe‘l shakli quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1. Boshqa bir harakat va holatning yuzaga chiqishi uchun vosita, shart bo‘lgan harakatni bildiradi, bunda shart ergash gapning kesimi bo‘lib keladi; har ikkala gap anglatgan voqea-hodisalar ish-harakat ham bajarilmagan bo‘lib, birining bajarilishi



ikkinchisiga bog'langan, shartlangan bo'ladi. Agar odam bo'lay desang, har ishda oqil bo'l. Shart maylidagi fe'llar ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, payt, shart va o'rin ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi: Kimda kim o'z ishi bilan maqtansa, uchun inson emas. Kimki boshqalarga yaxshilik qilib ta'na qilsa, uni hech kim hurmatlamaydi.

2. Payt ma'nosini bildiradi: Ertalab borsam, hech kim yo'q. Bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti.

3. Ham, -da yordamchilari bilan kelib, voqea-hodisaning bajarilishiga to'siq bo'la olmagan harakat-holatni bildiradi. Bunda sodda gap tarkibida to'siqsiz hol, qo'shma gapda esa to'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lib keladi: Nizomjon charchasa ham ishlayverdi. Tiling to'g'ri bo'lsa-da, diling egridir.

4. -chi yuklamasi bilan kelganda, buyruq-istak mayliga xos ma'nolar ifodalanadi: Bu erdan ketsang-chi. Mashinangizga solib bir aylantirib kelsangiz- chi.

5. Orzu-istak ma'nosini bildiradi: Qani endi men ham o'sha kunlarga tez etsam.

6. Iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi: Opajon, shu rasmingizni bersangiz. Bu erda shovqin solib gaplashmasak.

7. Nahotki so'zi bilan kelganda, to'satdan hukm chiqarish, voqea-hodisadan hayratlanish, gumon ma'nolari ifodalanadi: Nahotki men unga ishonsam.

8. Kerak so'zi bilan kelganda, faraz, gumon, noaniqlik ma'nolari ifodalanadi: U ham borsa kerak.

9. Bo'ladi yordamchi fe'li bilan kelganda mumkinlik, imkoniyat, zaruriyat ma'nolari ifodalanadi: Ertaga institutga bormasam bo'lmaydi.

10. -sa affiksli fe'l yetakchi-ko'makchi shakllarni ham bog'laydi: olsa bo'ladi, ketsa ketsin, borsang bo'lmaydi, o'qisang o'qi.

Shart mayli shakli bilan ifodalangan ergash gap kesimi nomustaqil kesim deb ham yuritiladi: Agar ishlov yaxshi bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi.

Fe'lning shart mayli asosan kelasi zamon ma'nosiga ega. Ergash gapning kesimi vazifasida kelganda, ba'zan o'tgan zamon ma'nosini ham ifodalaydi: Tuhmatga yo'liggan bo'lsa ham, kasbdoshlari beparvo edi.

3. Buyruq-istak mayli. Buyruq-istak mayli ish-harakat bajaruvchining xohishiga bog'liq bo'lgan harakatga undash, shu harakatga da'vat etishni ifodalaydi va *-gin, -sin, -aylik, -ing* kabi vositalar yordamida hosil qilinadi.

Buyruq -istak maylining ikkinchi shaxsi qat'iy buyruq ma'nosini anglatadi: *Fe'lning buyruq-istak mayli* so'zlovchining harakatni bajarishga buyurishini, qistashini, undashini anglatadi va har bir ma'no ottenkasi o'ziga xos ohang bilan xarakterlanadi: Ishingni bajar.



Buyruq-istak maylining tuslanishi shunday:

Birlik.

Ko'plik.

1-shaxs boray(-in), ishlay(-in) boraylik, ishlaylik

2-shaxs bor(gin), ishla(-gin) boring, ishlang(iz)

3-shaxs borsin, ishlasin borsin(lar), ishlasin(lar).

So'zlovchining harakatni bajarishga undashi bevosita ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi, shuning uchun buyruq-istak maylining asosiy shakli ikkinchi shaxs (birlik va ko'plik) hisoblanadi: Saflar oldida bo'l, mard bo'l jasur bo'l.

Buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs birligi bir ko'rinishida shaklan fe'l o'zagiga teng keladi. SHu shaxsdan boshqa buyruq-istak shakllari hosil qilinadi.

1. Buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs birligi uch shaklga ega:

a) qat'iy buyruq anglatadi, bu affikssiz ifodalanadi: yovni quv, do'stlarni qutqar.

b) fe'l negiziga -gin (-gil) affiksini qo'shishdan tuziladi. Bu shakl buyruq ma'nosini so'rash, iltimos, maslahat tarzida ifodalaydi: Meni kutgil va men qaytarman.

v) fe'l o'zagiga -{i}ng affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunda bir shaxsga nisbatan hurmat, ba'zan ikkinchi shaxsning ko'pligi ma'nosi ifodalanadi: Sobirjon, ulkan g'alabalarni ko'zlang. Sobir, Karim, keling.

2. Ikkinchi shaxsning ko'plik shakli asosan ikki yo'l bilan hosil qilinadi:

a) fe'l o'zagiga -inglar affiksini qo'shish bilan: Qani, bolalarim, bir dam olinglar.

b) te'l negiziga -ingiz aftiksini qo'shish bilan: Hech qachon bizni unutmangiz.

Buyruq-istak maylining uchinchi shaxs shaklida buyurish, iltimos, undash ma'nolari vosita bilan bildiriladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri 3-shaxsga qaratilmasdan, 2-shaxs orqali suhbatga qatnashmagan shaxs va predmetga qaratiladi: Kerakli kitoblarni ketirsang.

So'zlovchi to'g'ridan-to'g'ri o'ziga buyruq bera olmaydi, shuning uchun buyruq-istak maylining 1- shaxsida istak, harakatni bajarishga xohish, ahd ma'nolari yoki so'zlovchining o'zi ham qatnashgan holda harakatni birgalikda bajarishga undash kabilar ifodalanadi. 1- shaxs birligi fe'l negiziga -y(-ay) affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi: o'qi, olay.

Ta'kidlash ma'noni kuchaytirish uchun -in qo'shiladi: o'qiyin, olayin. 1-shaxsning ko'pligi esa 1- shaxs birlik -lik affiksini qo'shish bilan hosil bo'ladi: o'qiylik, olaylik.

Ko'plik shaklida so'zlovchi ham qatnashgan bir qancha shaxslar tomonidan harakatni bajarishga undash, shu bilan birga, 1- shaxsning istagi, xohishi kabilar ham



bildiriladi: Dalada boshlangan gapni davom ettiraylik. Bu formada ham deb yordamchisi bilan birikib kelsa, harakatning bajarilish maqsadini anglatadi: Qo'lg'a kitob oldim, fan cho'qqisin egallayin deb.

Maqsad mayli — fe'l mayllaridan biri bo'lib, ish-harakatning maqsad, niyat yoki istak bilan bajarilishini bildiradi. Bu mayl orqali so'zlovchi o'zining kelajakdagi rejalarini, amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlarini va ichki xohish-istaklarini ifodalaydi.

Maqsad maylidagi fe'llar harakatning bajarilishini emas, balki harakatni bajarish maqsadini ifodalaydi. Masalan, Men bugun kitob o'qishga boraman jumlasida o'tgan zamon maqsad fe'li bilan ifodalangan.

Maqsad mayli mayl ko'chishida ham qo'llaniladi, masalan, Dars tugasa, birga ketamiz jumlasida shart maylidagi maqsad mayli bilan ifodalangan. Maqsad mayli odatda hali bajarilmagan, lekin bajarilishi rejalashtirilgan harakatni anglatadi. Shuning uchun u ko'pincha kelasi zamon ma'nosiga yaqin bo'ladi. Ushbu mayl yordamida inson o'z oldiga qo'ygan maqsadini aniq va ravshan qilib ifoda etadi. Masalan, kimdir o'qimoqchi, ishlamoqchi yoki biror natijaga erishmoqchi bo'lsa, aynan maqsad maylidan foydalanadi. Bu mayl nutqda reja tuzish, orzu qilish va kelajakni tasavvur qilishda muhim o'rin tutadi. Maqsad mayli, shuningdek, insonning ichki motivatsiyasini, intilishini va ma'lum bir natijaga erishishga bo'lgan harakatini ham ko'rsatadi. Shu sababli u nafaqat grammatik shakl, balki mazmun jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Fe'l mayllari o'zbek tilining eng muhim grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib, ular orqali ish-harakatning bajarilishiga bo'lgan turli xil **munosabatlar, ma'no nozikliklari va nutqiy maqsadlar** ifodalanadi. Har bir mayl o'ziga xos vazifani bajarib, gap mazmunini boyitadi va uni yanada aniq, tushunarli hamda ta'sirchan qiladi.

Fe'l mayllari yordamida so'zlovchi voqea-hodisaga nisbatan o'z qarashini bildiradi: masalan, harakatning aniq bajarilganini (aniqlik mayli), buyruq yoki iltimos shaklida ifodalanganini (buyruq-istak mayli), ma'lum bir shart asosida yuz berishini (shart mayli) yoki kelajakdagi reja va niyat sifatida tasvirlanishini (maqsad mayli) ko'rsatadi. Shu jihatdan, fe'l mayllari nafaqat grammatik birlik, balki **mantiqiy va kommunikativ vosita** sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, fe'l mayllari nutqning uslubiy boyligini oshiradi. Ular yordamida bir xil ish-harakat turli ma'nolarda ifodalanishi mumkin. Masalan, oddiy xabar berish, buyruq berish, maslahat qilish yoki orzu-niyatni bayon etish — bularning barchasi aynan fe'l mayllari orqali amalga oshadi. Bu esa tilning imkoniyatlarini kengaytiradi va nutqni yanada rang-barang qiladi.



Fe'l mayllarini to'g'ri qo'llash insonning nutq madaniyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yozma va og'zaki nutqda fikrni aniq yetkazish, ortiqcha tushunmovchiliklarning oldini olish va mazmuni to'liq ifodalashda ularning o'rni beqiyosdir. Har bir maylning o'z o'rni va qo'llanish holati mavjud bo'lib, ularni bilish tilni mukammal egallashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T.: 1997.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiytili. Toshkent: O'zbekiston, 1992.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiytilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya.) Toshkent. 2000.
6. Yunusov R. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent. 2000.
7. Safaev K., Yunusov R. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya) Toshkent. 2000.
8. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis.) Toshkent. 2000.